

**Texnologik vositalarning xorijiy til o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ta'siri. Xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi moslamalar**

### **Po'latova Ruxshonaxon**

Qo'qon universiteti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Bu o'zgaruvchan va o'ta shiddatli zamonda kundan kunga til bilish juda ham muhim bo'lib bormoqda. Mazkur maqolada xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi zamonaviy moslamalar tahlili olib boriladi va ular haqidagi ba'zi ma'lumotlar qismi yoritiladi. Til o'rganish jarayonini qulaylashtiruvchi texnologiyalar, jumladan, mobil ilovalar, elektron lug'atlar, ovozli yordamchilar va virtual o'quv platformalari haqida bat afsil ma'lumot beriladi. Ushbu moslamalar foydalanuvchilarga samarali ta'lim olish, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va yangi tilni o'zlashtirishda yordam berish uchun mo'ljallangandir. Shuningdek, maqolada har bir moslamaning til o'rganish jarayonidagi o'rni, foydalanuvchilarga taqdim etadigan afzallikkari va kamchiliklari yoritib beriladi. O'rganish samaradorligini oshirish uchun moslamalarni qanday tanlash va ulardan qaysi usullarda foydalanish mumkinligi bo'yicha tavsiyalar ham beriladi. Mazkur tahlil xorijiy til o'rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishga intilayotgan o'quvchilar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til, texnologik moslamalar, mobil ilovalar, elektron lug'atlar, ovozli tarjimonlar, interaktiv ta'lim, nutq rivojlantirish, til bilish darajasini oshirish, o'quv texnologiyalari.

**Kirish:** Bugungi dunyoda xorijiy tillarni o'rganish imkoniyati global aloqalarni rivojlantirish, ta'lim olish va kasbiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, xorijiy tillarni tez, qulay va samarali o'rganish imkonini beruvchi turli texnologiyalar, vositalar va moslamalar ishlab chiqilmoqda. Mobil ilovalar, elektron lug'atlar, ovozli tarjimonlar va virtual o'quv platformalari kabi texnologik vositalar til o'rganish jarayonini osonlashtirib, o'quvchilarga faol va qiziqarli ta'lim olish imkonini

bermoqda. Bu turdag'i moslamalar nafaqat til bilimini oshirishga yordam beradi, balki talaffuzni yaxshilash, eshitish qobiliyatini rivojlantirish va nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ko'plab mobil ilovalar foydalanuvchiga moslashtirilgan mashg'ulotlar va o'yinlar orqali yangi so'zlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ovozli tarjimonlar esa xorijiy mamlakatlarga safar qilayotganlar uchun til to'siqlarini yengishga xizmat qilmoqda. Virtual platformalar va onlayn kurslar o'qituvchi va o'quvchilarni real vaqtida bog'lab, interaktiv darslar o'tkazish imkonini taqdim etadi. Xorijiy tilni o'rganish nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki xalqaro hamkorlik, biznes, ilm-fan va madaniy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Globalizatsiya va raqamli inqilob tufayli til o'rganish usullari keskin o'zgardi: an'anaviy o'quv vositalariga qo'shimcha ravishda zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Shu maqsadda ishlab chiqilgan texnologik vositalar – mobil ilovalar, elektron lug'atlar, ovozli tarjimonlar, va onlayn o'quv platformalari – til o'rganish jarayonini yangi darajaga olib chiqdi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki bunday moslamalarga insonlarni ehtiyoji "COVID-19" dan keyin keskin ravishda oshdi, ayni shu paytta bunday o'quv mashg'ulotlarga insonlar juda ham muhtoj bo'lishgani sabablik ham ular keng miqiyosda rivojlanishiga sababchi bo'lishdi desak adashmagan bo'lamic. Ushbu vositalar individual talablarga moslashtirilgan o'quv dasturlarini taqdim etadi, turli interaktiv mashg'ulotlar orqali bilimni mustahkamlashga imkon yaratadi va real vaqtida muloqot qilishni osonlashtiradi. Mobil ilovalar foydalanuvchilarga bosqichma-bosqich til o'rgatib, ularning o'zlashtirish tezligi va o'quv uslubiga moslashgan individual darslarni taqdim etadi. Ovozli tarjimonlar esa yangi tilni hali yaxshi bilmaydigan foydalanuvchilarga xorijiy mamlakatlarda o'zlarini erkinroq his qilishlariga yordam beradi. Virtual o'quv platformalari esa, o'quvchilar va o'qituvchilarni masofadan bog'lab, jonli darslar va muloqotni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Mazkur maqola davomida xorijiy til o'rganishda foydalanilayotgan ushbu texnologiyalar, ularning imkoniyatlari va ta'lim jarayonidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, til o'rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun moslamalarni tanlash bo'yicha tavsiyalar va

ularning afzallik va kamchiliklari ham tahlil qilinadi.

### **Adabiyot tahlili**

Adabiyot tahlilidan foydalanish xorijiy til o‘rganishda texnologik vositalarning samaradorligi haqida mavjud ilmiy nazariyalarni, tadqiqotlarni va amaliy ishlarni tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali ilgari amalga oshirilgan tadqiqotlar, maqolalar, kitoblar va hisobotlar o‘rganiladi, texnologik rivojlanishning ta’lim jarayoniga qanday ta’sir qilganligi haqida umumiylar ma'lumot olinadi. Ushbu tahlil til o‘rganish texnologiyalari samaradorligini tushunishga, texnologiyaning qanday jihatlari o‘quvchilar uchun eng muhim ekanligini aniqlashga yordam beradi. Adabiyot tahlili texnologiyalarni to‘g‘ri sinflarga ajratish va ularning o‘quv jarayonida o‘ziga xos rolini aniqlashga xizmat qiladi. Ko‘plab tadqiqotlarda zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonida yangi pedagogik imkoniyatlar yaratishi ta’kidlangan. Bunga misol tarzda Krashenni olsak bo’ladi. Shuningdek Krashenning ”Ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyasi” texnologiyalar yordamida til o‘rgatishning kommunikativ yondashuvini qo’llab-quvvatlaydi. Bu nazariyada texnologiyalar o‘quvchilarning haqiqiy til muhitida muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi. Va yana Beatty (2013) va Chapelle (2001) o‘z ishlarida texnologiyalar o‘quvchilarga o‘zlashtirish jarayonini moslashtirish imkonini berishini ta’kidlaganidek, texnologiyalar orqali individual yondashuvning amalga oshirilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi qiziqish darajasini oshiradi va stressni kamaytiradi. Bu, ayniqsa, nutq va talaffuzni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Dudeney va Hockly lar esa interaktiv texnologiyalarning foydalanuvchilarni faollikka undashini ta’kidlaydi. Masalan: Tilni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar, masalan, Duolingo yoki Busuu, o‘quvchilarni takroriy amaliyat orqali bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi (2007). Har narsani yaxshi tomoni bo‘lganidek, yomon tomoni ham yo‘q emas. Levy rivojlanmagan texnik infratuzilma texnologiyalardan keng foydalanishga to‘sinq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Internetga ulanish imkoniyati yoki texnologik qurilmalar mavjudligi hali ham muhim masala. Yang va Chen esa texnologiyalarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchilar va o‘quvchilar tomonidan maxsus ko‘nikmalar talab qilinishini qayd etadi. Ba’zi

foydanuvchilar yangi vositalarga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi. (1997, 2007). Albatta bunday muommolarni bartaraf etish muhim omillardan hisoblanadi, texnologiyalar har doim ham an'anaviy o'qituvchining o'rmini to'liq bosa olmaydi. O'qituvchi va texnologiya o'rtasidagi muvozanat zarur.

## Metodlar

Ushbu tadqiqot davomida xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi texnologik moslamalarning samaradorligini tahlil qilish uchun bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlarni qo'lladik. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning til o'rganish jarayonida ushbu vositalardan foydalanish samaradorligini aniqladik va ularning ta'limiylariga ta'sirini baholashni maqsad qildik.

*Eksperimental usul:* Eksperimental metod orqali xorijiy tilni turli texnologik vositalar yordamida o'rganayotgan o'quvchilar guruhining natijalari an'anaviy usulda o'rganuvchilar bilan taqqoslanadi. Bu usul orqali eksperimental guruh va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlarni aniqlashga va texnologik vositalarning samaradorligini o'lchashga imkon yaratiladi. Eksperiment davomida, masalan, mobil ilovalar yordamida til o'rganayotgan o'quvchilarning so'z boyligi, talaffuz va grammatika bilimlari, ularning motivatsiya darajasi va ta'limni qabul qilish tezligi kuzatiladi. Taqqoslash natijasida texnologiyaning til o'rganish jarayoniga ta'siri haqida xulosalar chiqariladi.

*So'rov va intervyular:* Ushbu metod orqali o'quvchilar va o'qituvchilar orasida keng qamrovli so'rovnomalar va chuqur intervyular o'tkazilib, ularning texnologik vositalardan foydalanish tajribasi va qoniqish darajasi haqida ma'lumot yig'iladi. So'rov va intervyular o'quvchilarning mobil ilovalar, ovozli tarjimonlar yoki virtual o'quv platformalar haqida qanday fikrda ekanini, texnologiya ular uchun qanchalik foydali yoki qiyinligini tushunishga yordam beradi. Shu orqali texnologik vositalarning o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabati, motivatsiyalari va qiziqishlarini qanday o'zgartirishini aniqlash mumkin.

*Statistik tahlil:* Olingan ma'lumotlar va kuzatishlar statistik tahlil yordamida qayta ishlanadi. Bu bosqichda regressiya va korrelyatsiya tahlili kabi usullardan foydalanimlib,

turli texnologik moslamalarning o‘quv jarayoniga ta’siri aniq raqamlar orqali baholanadi. Statistika olingan natijalar asosida texnologik vositalarning ta’limga qanday ta’sir qilishini tushunish uchun aniq va ishonchli dalillar beradi. Masalan, tilni o‘rgatishga yordam beruvchi ilovalarni ishlatish darajasi bilan o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Statistik tahlil yordamida umumiylar xulosalar chiqarish, texnologiyalarning samaradorlik darajasi haqida aniq dalillar yaratish mumkin. Har bir metod orqali xorijiy til o‘rganishda texnologik vositalarning nafaqat lingvistik jihatdan, balki psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ham ta’sirini ilmiy jihatdan aniq baholash imkoniyati yaratiladi.

## **Natijalar**

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar xorijiy tilni o‘rganishda texnologik moslamalarning samaradorligini ko‘rsatadi. Olingan ma'lumotlar va tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlangan:

1. Eksperimental guruhda o‘rganayotgan o‘quvchilar, mobil ilovalar va virtual platformalar yordamida an’anaviy usulda o‘qiyotgan nazorat guruhiga nisbatan yaxshiroq natijalar ko‘rsatgan. O‘quvchilar o‘zlashtirish tezligi, so‘z boyligi va talaffuz ko‘rsatkichlarida sezilarli farq qayd etilgan. Bu texnologik vositalar foydalanuvchilarga individual o‘quv rejalarini va real vaqt davomida o‘zlashtirish imkonini beradi.
2. So‘rov va intervyular natijalari shuni ko‘rsatdiki, texnologik vositalardan foydalangan o‘quvchilarning motivatsiya darajasi an’anaviy o‘qitishga nisbatan yuqori bo‘lgan. O‘quvchilar interaktiv va qiziqarli muhitda o‘qitilganda, ularning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.
3. O‘qituvchilardan olingan intervyular shuni ko‘rsatdiki, texnologik moslamalar o‘quvchilar bilan muloqotni kuchaytiradi va o‘qituvchilarga individual yordam berish imkoniyatini beradi. O‘qituvchilar texnologiyalarning o‘quvchilar uchun qiyinchiliklarni yengib o‘tishda, ularning ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish imkoniyatini taqdim etishini ta’kidlashdi.
4. Statistik tahlil natijalari mobil ilovalar va virtual platformalarning o‘quvchilarning

tilni o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. O'quvchilar, shuningdek, o'z-o'zini o'rganish jarayonida yangicha usullarga o'rganib, yanada mustaqil o'qish qobiliyatini rivojlantirgan.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari xorijiy til o'rganishda zamonaviy texnologik vositalarning ta'lif jarayonida muhim o'rinni tutishini ko'rsatadi. Ushbu moslamalar o'quvchilarning o'rganish tajribasini yaxshilab, til bilish darajasini oshirishga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchilarga o'z darslarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijalar kelgusi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlarni ochib beradi va xorijiy tillarni o'rganish jarayonida texnologiyalarning ahamiyatini yanada kengaytiradi.

### **Munozara**

Tadqiqot natijalari xorijiy tilni o'rganishda texnologik vositalarning samaradorligini tasdiqlaydi va ushbu vositalarning o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalarning interaktivligi o'quvchilarda o'rganishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Mobil ilovalar, virtual o'quv platformalari va ovozli tarjimonlar o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishda qiziqarli va real hayotga yaqin muhit yaratadi. O'quvchilar tez-tez takrorlash va o'yin asosidagi yondashuvlar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu motivatsiya darajasining oshishi o'quvchilarning ta'limga jalb qilinishini kuchaytiradi, ular til o'rganishni qiyinchilik emas, balki yangi tajriba sifatida qabul qilishadi. Bu esa SLA (Second Language Acquisition) nazariyasida ilgari surilgan o'zlashtirishga asoslangan bosqichlarning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlaydi. Texnologik vositalar o'quvchilarga individual o'quv rejalarini asosida bilim olish imkonini beradi. Eksperimental usulda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mobil ilovalar va virtual platformalar o'quvchilar ehtiyojlariga moslashgan holda o'rgatishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, texnologiyalar har bir o'quvchining bilim darajasini individual baholash va unga mos topshiriqlarni berish imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv an'anaviy sinfda imkoniyatdan chetlanadigan ayrim o'quvchilar uchun ham samarali ta'lif olish imkonini beradi. Ayniqsa, talaffuzni yaxshilash va eshitish

qobiliyatini rivojlantirish uchun ovozli tarjimonlar va interaktiv mashqlar amaliyotda yaxshi natijalar beradi. Texnologiyalarning rivojlanishi o'qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi, ammo o'qituvchilar va texnologiyalar o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlanadi. O'qituvchilar texnologik moslamalarni ta'lif jarayoniga qo'shishda yordamchi rolni o'ynashlari kerak, lekin ular texnologiyaga butunlay bog'lanmasliklari muhim. Ilg'or texnologiyalarga ega bo'lgan darslarda o'qituvchilarning motivatsion va qo'llab-quvvatlovchi roli katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar texnologiyalar yordamida mustaqil o'rgansa ham, o'qituvchining ma'lumotni tushuntirib berishi va qo'llab-quvvatlashi samaradorlikni oshiradi. Tadqiqot jarayonida ba'zi cheklovlар ham kuzatildi. Texnologik vositalar barcha o'quvchilar uchun birdek samarali bo'lavermaydi; ba'zi o'quvchilar an'anaviy o'quv uslublarini afzal ko'rishadi yoki texnologiyadan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Masalan, texnologiyaga nisbatan kamroq qiziqishi bo'lgan o'quvchilar yoki texnik vositalardan foydalanish tajribasiga ega bo'laman foydalanuvchilar bu jarayonda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuningdek, qator texnologik moslamalar yuqori darajada internet va texnik infratuzilma talab qiladi, bu esa rivojlanayotgan mintaqalarda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Natijalar texnologiyalar ta'lif samaradorligini oshirishda ahamiyatli ekanligini ko'rsatgan bo'lsa-da, ba'zi savollar ochiqligicha qolmoqda. Kelgusida texnologiyalarning uzun muddatli ta'siri va ularning tilni chuqurroq o'zlashtirish jarayoniga qo'shadigan hissasi haqida ko'proq tadqiqotlar olib borilishi kerak. Bundan tashqari, texnologiyaning turli yosh toifalaridagi va til o'rganishning turli bosqichlaridagi o'rni bo'yicha chuqurroq tahlillar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, texnologik vositalar xorijiy til o'rganishni ancha qulaylashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkinligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Bu moslamalar til o'rganishda o'quvchilar uchun motivatsiya manbai, o'zlashtirish tezligi va interaktivlikni oshiruvchi vosita sifatida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, texnologiya va o'qituvchining uzviy aloqasi, shuningdek, texnologiyaga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bu sohadagi kelgusidagi muvaffaqiyatlar uchun hal qiluvchi omillar bo'lib qoladi. Va so'nggida shuni aytib

o'tmoqchimanki Pittsburg va Kaliforniya San-fransisko universiteti olimlari tomonidan qurilma ishlab chiqilgan va bu qurilma orqali miyyaga ta'sir etuvchi asosiy nervlarni qo'zg'otadi. Moslama yangi til tovushlarini o'rganish qobiliyatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Albatta bu qurilma orqali faqatgina tilga emas, balki boshqa narsalarni ham o'rganishga yordam berishi kutilmoqda. Bundan kelib chiqadiki insonlarni xorijiy til o'rganishga ehtiyoji oshgan sari bunday qurilma va platformalarni ham yaratilishi ko'payib bormoqda.

### **Xulosa**

Ushbu tadqiqot xorijiy tilni o'rganishda texnologik vositalarning ahamiyatini va ularning samaradorligini tasdiqladi. Mobil ilovalar, virtual o'quv platformalari va ovozli tarjimonlar kabi texnologiyalar til o'rganish jarayonida yangi imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarning bilim olishni tezlashtirishga, o'zlashtirish qobiliyatlarini oshirishga va darslarni qiziqarliroq qilishga yordam beradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularni interaktiv o'quv muhitiga jalb etadi, bu esa bilimni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda texnologik vositalarning o'qituvchilar uchun qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida o'quv jarayonida o'ziga xos o'rinn tutishi va ularning ta'lim jarayonida muhim yordamchi bo'lib xizmat qilishi qayd etildi. Lekin, texnologiyalardan foydalanishning cheklari ham mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun infratuzilma, texnik ko'nikmalar va texnologiya bilan o'qitishning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, tadqiqot xorijiy tilni o'rganish jarayonida texnologik vositalarning o'rni haqida qimmatli xulosalar beradi. Kelajakda bu sohada yana chuqurroq tadqiqotlar olib borish, texnologiyalarning uzoq muddatli ta'sirini o'rganish, ularning yanada samarali variantlarini ishlab chiqish va keng joriy qilish xorijiy til o'rgatishdagi muvaffaqiyatlarni yanada oshirish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar tahlili**

1. Beatty, K. (2013). *Teaching & Researching: Computer-Assisted Language Learning*. New York: Routledge.
2. Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Dudeney, G., & Hockly, N. (2007). *How to Teach English with Technology*. Harlow: Pearson Education.
4. Egbert, J., & Hanson-Smith, E. (2007). *CALL Environments: Research, Practice, and Critical Issues*. Alexandria, VA: TESOL Press.
5. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
6. Levy, M. (1997). Kompyuter yordamida til o'rgatish: Kontekst va konseptualizatsiya. Oksford: Oxford University Press.
7. Liu, M., Moore, Z., Graham, L., & Lee, S. (2002). "Ikkinchi tilni o'rgatishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar: 1990–2000 yillardagi adabiyotlar sharhi." Ta'limda texnologiyalar bo'yicha tadqiqot jurnali, 34(3), 250-273.
8. Stockwell, G. (2010). Kompyuter yordamida til o'rgatish: Tadqiqot va amaliyotda xilma-xillik. Kembrij: Cambridge University Press.
9. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). "Kompyuterlar va til o'rgatish: Umumiy ko'rinish." Til o'rgatish, 31(2), 57-71.
10. Yang, S. C., & Chen, Y. J. (2007). "Texnologiya yordamida til o'rgatish: Adabiyotlar sharhi." Kompyuter yordamida til o'rgatish, 20(1), 1-13